

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12. Fil.03.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

**FAYZULLAYEVA XILOLA FAYZULLAYEVNA**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ONLAYN MEDIA  
FAOLIYATIDAGI AXLOQIY DILEMMA VA MUAMMOLAR**

**10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

UO‘K: 050/070:171(575.1)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological  
sciences**

**Fayzullayeva Xilola Fayzullayevna**

Raqamli transformatsiya sharoitida onlayn media faoliyatidagi axloqiy dilemma va muammolar.....5

**Fayzullaeva Xilola Fayzullaevna**

Этические дилеммы и проблемы деятельности онлайн-СМИ в условиях цифровой трансформации..... 25

**Fayzullayeva Khilola Fayzullayevna**

Ethical dilemmas and challenges in online media activities in the context of digital transformation..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....54

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12. Fil.03.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

**FAYZULLAYEVA XILOLA FAYZULLAYEVNA**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ONLAYN MEDIA  
FAOLIYATIDAGI AXLOQIY DILEMMA VA MUAMMOLAR**

**10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2674 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzjoku.uz](http://www.uzjoku.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qosimova Nargis Sunnat qizi**

filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Olimov Farruxbek Sultonmurodovich**

filologiya fanlari doktori, (DSc)

**Xalilova Aziza Shamuxutovna**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12. Fil.03.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (99871) 207-09-06; e-mail: [journalism.univer@gmail.com](mailto:journalism.univer@gmail.com)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (99871) 207-09-06; e-mail: [journalism.univer@gmail.com](mailto:journalism.univer@gmail.com) ).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ -raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sherzodxon Qudratxo'ja**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, s.f.d.(DSc), professor

**Alijon Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.f.d.(DSc), dotsent

**Nozima Muratova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
f.f.d.(DSc), professor

## KIRISH

### (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kechayotgan global raqamli transformatsiya jarayoni mediamakonning institutsional, texnologik va mazmuniy parametrlarini tubdan yangilab, axborot-kommunikatsiya muhitining konseptual asoslarini qayta belgilamoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda multimedia platformalarining jadal rivojlanishi jurnalistik faoliyatning an'anaviy institutsional chegaralarini kengaytirib, kontent yaratish, qayta ishlash va tarqatish jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bunday sharoitda axborot oqimining tezkorligi, interaktivligi va multimodalligi kuchayishi media etikaning nazariy paradigmalari qayta ko'rib chiqishni, uning tamoyillari va axloqiy dilemmalarini zamonaviy kommunikativ reallik nuqtai nazaridan tahlil etishni taqozo etmoqda. Shu bois raqamli mediada yuzaga kelayotgan axloqiy dilemmalarning mazmun-mohiyati, mediaetik me'yorlarning huquqiy va institutsional asoslarini deontologik va konsektivistik yondashuvlar negizida kompleks tadqiq etish, mediaetika sohasining nazariy-metodologik bazasini takomillashtirish masalalari xalqaro miqyosda dolzarb masala sifatida baholanmoqda.

Dunyo miqyosida raqamli transformatsiya sharoitida axloqiy dilemmalar, ishonchlik va faktlarni tekshirish, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ta'siri, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, algoritmlar va sun'iy intellektning axloqiy dilemmalarni yechishdagi o'rni bilan bog'liq masalalar global media tizimida axborot sifati, xolislik va jamoatchilik ishonchini ta'minlashning nazariy-amaliy yo'nalishlari, OAV sohasida axloqiy me'yorlarni tartibga solishning huquqiy va institutsional mexanizmlari, onlayn mediani tartibga solish hamda sun'iy intellektdan foydalanishda mediaetik tamoyilni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, milliy media muhitini global axloqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish, kiberetika talablariga rioya qilish hamda soxta xabarlarqa qarshi kurashish bo'yicha 2022–2025-yillarda qator qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. "Ayni vaqtda ommaviy axborot vositalarida xolislik va qonun ustuvorligini ta'minlash, professional bilim va mahoratni oshirib borish, aholi o'rtasida axborot, bahs va muloqot madaniyatini shakllantirish, jamiyatimizdagi turli illatlar, korrupsiya balosiga qarshi kurashish kabi dolzarb vazifalar bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur"<sup>1</sup>. Shu ma'noda, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi bilan bog'liq xatarlar, faktlarni tekshirish mexanizmlarining murakkablashuvi hamda sun'iy intellektning axborotni saralash va tavsiya qilishdagi ishtirokini mediaetik me'yorlar sifatida tadqiq etish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari hamda ushbu soha bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil, 27-iyundagi Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrik nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/8269>

g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda raqamli media muhitida axloqiy standartlarni belgilash, ularning huquqiy hamda institutsional mexanizmlari, kasbiy standartlarni takomillashtirish yo'nalishida Sh.T.Qudratxo'ja, N.F.Muratova, F.A.Mo'minov, X.N.Do'stmuhammedov, N.S.Qosimova, Ya.M.Mamatova, N.Q.Toshpo'latova, K.Baxriyev, A.A. Karimov, H.A.Mirsultonova, M.B.Otamurodova, K.A.Abdikarimov, N.A.Musayeva kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan<sup>2</sup>.

MDH davlatlarida A.A.Tertichniy, Ye.P.Proxorov, D.A.Kumilganova, V.M.Tepluk, S.I.Ragimova, B.V.Potyatinik, A.Ye.Djazoyan, V.I.Rossman, N.S.Safarov, O.Ye.Saveleva, I.S.Parimskiy, A.P.Skripnik, I.R.Mamedzoda, B.Dugarsurengiyin, G.S.Bakenova, A.Niyaz, G.Golubeva, V.A.Kanke kabi olimlar jurnalistikaning nazariy asoslari, ijtimoiy vazifasi va mas'uliyati, kasb etikasining nazariy jihatlarini, so'z erkinligi, shuningdek, jamoatchilik fikri bilan bog'liq masalalarda qator tadqiqotlarni amalga oshirgan<sup>3</sup>.

Yevropa davlatlarida S.J.Ward, G.Christians, R.P.Clark, A. White, R.Cazzamatta, G.Sarisakaloglu, R.Chesney, D.Citron, B.Cunningham, N.Diakopoulos, S.Fluxman, B.Johnson, J.Kaluza, C.G.Christians D.M.West, A.L.Allen, A.L.Penenberg kabi olimlarning tadqiqot ishlarida media etikaning universal me'yoriy asoslari, sun'iy intellektning axborot tarqatishdagi shaffofligi, soxtalashtirilgan ma'lumot tarqatish oqibatlari, ijtimoiy mas'uliyat va qadriyat kabi masalalarga e'tibor qaratishgan<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Qudratxo'ja Sh. T. Sun'iy intellekt jurnalistikada insonning o'rnini bosa olmaydi // International journal of media and communications in Central Asia. 2024. [https://uza.uz/oz/posts/suniy-intellekt-jurnalistikada-insonning-ornini-bosa-olmaydi\\_628115](https://uza.uz/oz/posts/suniy-intellekt-jurnalistikada-insonning-ornini-bosa-olmaydi_628115); Муратова Н. Ф. Современное информационное пространство и мультимедийная онлайн журналистика: становление, характеристики, свойства. – Т.: Бодомзор Инвест, 2022. – С. 160; Мо'минov F. Журналистика ijtimoiy institut sifatida. –Т.: O'zbekiston, 2008. –В. 176.; Do'stmuhammad X. Xalqaro jurnalistikada gumanitar huquq va kasb etikasi. –Т.: 2011. – В.212; Qosimova N. Журналист kasb odobi masalalari yoki O'zbekiston jurnalistlari kasb odobi kodeksi qachon qabul qilinadi? 2017. <http://nargis.uz/?p=161>.; N.Qurbon, K.Bahriyev. Media huquqi. –Т.: Grand Inter Media, 2022.–В. 618.; Mamatova Ya., Arifxanova, S. Вопросы профилактики насильственного экстремизма: освещение в массмедиа [https://jqtum.uz/media/pdf\\_folder/pdf/3d43e961-c5ff-4552-80c8-73a60a7b39f8.pdf](https://jqtum.uz/media/pdf_folder/pdf/3d43e961-c5ff-4552-80c8-73a60a7b39f8.pdf); N.Qosimova, A.Karimov, X.Fayzullayeva Fotojurnalistika. – Т.: Turon-Iqbol, 2018. –В. 136; Bahriyev K. Журналистning huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlari. – Т.: Fan, 2000. –В. 198.1602B; Mirsultonova H. A. O'zbekiston OAVda axborot manbalari bilan ishlashning huquqiy mexanizmlari. Fil.fan.b.fals.doktori(PhD) diss. – Toshkent, 2024. – В.137; Otamurodova M. B. Jahon medialanshaftida so'z erkinligiga yangi yondashuvlar va ularning milliy mass-mediaga integratsiyalashuvi. Fil.fan.b.fals.doktori(PhD) diss.–Т.:2023.–В.153; Абдикаримов К.А. Медиаграмотность как средство противодействия дезинформации. Автореф. дис... на соиск. уч.ст.д.ф. PhD. по фил.наук. Т.: 2023. –С.189; Musaeva N. A. Axborot agentliklarining axborot jamiyati sharoitidagi taraqqiyot tendensiyalari (milliy va xalqaro tajriba). Fil.fan.b.fals.doktori(PhD) diss. – Т.: 2025. –В.140.

<sup>3</sup>Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – М.: "Аспект Пресс", 2000. –С. 224; Тертычный А.А. Расследовательская журналистика. – М.: "Аспект Пресс", 2002. –С. 238; Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики.– М.: "Аспект Пресс", 2011. –С. 348; Кумилганова И.А. Нравственные критерии в профессиональной журналистской деятельности: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: МГУ, 1992. – С. 20; Теплюк В.М. Этика журналистского творчества. – М.: Наука, 1980. 182 с.; Рагимова С.И. Нравственно-эстетическое воспитание молодежи и печать: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. – Баку: 1988. – С. 40; Потятиник Б.В. Социально-психологические аспекты влияния СМИ на аудиторию: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Киев: 1991. –С. 16; Джазоян А.Е. Трансформации журналистской деятельности в современном медиапространстве. Дисс. на соиск. уч. ст. кан. фил. н. – М.: 2014; Россман В.И. Идеал внутренней свободы в древнекитайской этике: Автореф. Дис. на соиск. уч. ст. кан. фил. н. – М.: 2014; Сафаров Н.С. Этический анализ проблемы ответственности: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Баку: Инст. Философии и права Азерб. Респ. 1991. – С. 38; Савелева О.Е. Нравственные проблемы культуры общения: Автореф. дис. ...канд. филос. наук. – М.: 1992; Паримский И.С. Политическая культура журналиста в демократизирующемся обществе (методологические, социально-психологические и творческие проблемы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Киев: Киевский гос. ун-т. 1991. –С. 18.; Скрипник А.П. Моральное зло как проблема истории этики и культуры: Автореф. дис. ...док. филос. наук. – М.: Инст-т Философии АН СССР, 1990. –С. 34; Дугарсуренгийн Б. Роль средств массовой коммуникации в формировании общественного мнения в Монголии (социально-психологический аспект): Автореф. дис. ... канд. психолог.наук. – М.: 1993; Бакенова Г.С. К проблеме свободы слова и плюрализма (на примере республиканского и алматинского телевидения в Казахстане на русском языке): Автореф. дис. канд. филол. наук. Алматы: Казах. гос. нас. уни-т, 1994. –С. 23; Нияз А. Формы и методы воздействия СМИ на формирование общественного мнения: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Минск: 1998.; Голубева Г. Этика. – М.: Экзамен, 2005. – С. 308; Теплюк В.М. Социальная ответственность журналиста. – М.: Мысль, 1984. – С. 51; Канке В.А. Этика ответственности. – М.: Логос, 2003. – С. 240.

<sup>4</sup> Ward S. J. A. (2021). Ethics and the media: An introduction. Cambridge: Cambridge University Press. Retrieved September 09, 2025 <https://philpapers.org/rec/WAREAT-94>; Christians C.G. Media ethics and social responsibility. (2020). Clark R. P. (2005). Red light, green light: A plea for balance in media ethics. Poynter.org. Retrieved September 09, 2025; White A. & Elliott, C. (Eds.). (2018). Trust in ethical journalism: The key to media futures. Ethical Journalism Network. Aidan White and Chris Elliott. Retrieved August 17, 2025, <https://ethicaljournalismnetwork.org/wp-content/uploads/2021/11/Trust-in-Ethical-Journalism-1.pdf>; Cazzamatta R. & Sarisakaloglu, G. (2024). AI, journalism, and public trust. Journalism Studies, 25(4), 567–583; Chesney R., & Citron, D. Deepfakes and the new disinformation war. Yale Law Journal, 133(2), –P. 345–412. [https://scholarship.law.bu.edu/shorter\\_works/76/](https://scholarship.law.bu.edu/shorter_works/76/) (15.08.2025). West, D.M., Allen, J. How Artificial Intelligence Is Transforming the World. – Brookings, 2018. <https://www.brookings.edu/research/how-artificial-intelligence-is-transforming-the-world/>; Penenberg, A.L. Hack heaven: The Stephen Glass case. – Forbes, 1998. Source: <https://www.forbes.com/1998/05/11/otw3.html>. Cazzamatta R. & Sarisakaloglu, G. (2024). AI, journalism, and public trust. Journalism Studies, 25(4), 567–583; Cunningham B. (1981). Jimmy's world and the Pulitzer Prize. The Washington Post. Retrieved September 09, 2025 <https://ru.scribd.com/document/37178653/Ben-Coulter-Janet-Cooke-Jimmy-s-World>. Flaxman S., Goel, S., & Rao, J. M. (2016). Filter bubbles, echo chambers, and online news consumption. Public Opinion Quarterly, 80(S1), 298–320. <https://doi.org/10.1093/poq/nfw0064>;

Biroq media etikaning nazariy paradigmalari, raqamli mediada axloqiy dilemma tendensiyalari, huquqiy jihatlari, jurnalistik faoliyatini tartibga solishda deontologik va konsektivistik yondashuvlar, algoritmlar va sun'iy intellektning axloqiy dilemmalarni yechishdagi tamoyillari O'zbekistonda kompleks ravishda tadqiq etilmagan.

### **Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda raqamli jurnalistikada media etika va axborot xavfsizligi masalalari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Raqamli transformatsiya sharoitida onlayn media faoliyatida vujudga kelayotgan axloqiy dilemma va muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash hamda milliy va xalqaro tajribani hisobga olgan holda onlayn media sohasida axloqiy me'yorlarni ta'minlash va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

- media etika paradigmasi va jurnalistik tamoyillar evolyutsiyasini tadqiq qilish asnosida raqamli mediada axloqiy dilemmalarni milliy va xalqaro tajribalar asosida tahlil qilish;
- mahaliy OAV va internet makonida axloqiy me'yorlarni tartibga solishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini xalqaro standartlar bilan qiyosiy tadqiq qilish;
- deontologik va konsektivistik yondashuvning amaliy ahamiyatini asoslash va onlayn media amaliyotiga tatbiq etish;
- raqamli transformatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va faktcheking jarayonidagi axloqiy muammolarni kompleks tadqiq etish;
- algoritmlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining axloqiy dilemmalarni hal qilishdagi rolini o'rganish hamda ijtimoiy etik mas'uliyatni aks ettiruvchi raqamli dastur konsepsiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** 2020-2025 yillarda O'zbekiston internet OAV va ijtimoiy tarmoqlarda axborot yaratish va tarqatish jarayonida yuzaga kelayotgan axloqiy dilemmalar, algoritmlar va sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq kasbiy-ahloqiy muammolar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarida axloqiy me'yorlarning amalga oshish mexanizmi, axloqiy dilemmalarning namoyon bo'lish dinamikasi va xususiyatlari tahlili tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari** sifatida tavsiflash, tasniflash, statistik tahlil, analiz va sintez, qiyoslash, tipologik yondashuv, konkretlashtirish, modellashtirish, kontent-tahlil usuli, jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadida so'rovnoma metodi qo'llanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- onlayn mediada yuzaga kelayotgan axloqiy dilemmalar tendensiyasi va ularning dinamikasi raqamli transformatsiya sharoitida media etikaning nazariy paradigmalari, tamoyil va me'yorlar bilan tizimlashtirilib, raqamli mediada axloqiy dilemmalarni baholashga xizmat qiluvchi normativ-axloqiy mezonlar milliy va xalqaro media paradigmalari konteksida ilk bor intersub'yektiv va gibrid nazariy modellarni uyg'unlashtirish orqali aniqlangan;
- zamonaviy media amaliyotida blogerlar va noan'anaviy axborot tarqatuvchilarning huquqiy maqomi institutsionallasuvi jarayoni bilan kompleks tahlil qilinib, mazkur subyektlar faoliyatini milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini aks ettiruvchi konseptual omillar hamda jurnalistik faoliyatni tartibga solishda deontologik, konsektivistik yondashuvlarni tatbiq qilishining ilmiy-nazariy asoslari dalillangan;
- raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining jurnalistik faoliyatga integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelayotgan deepfake fenomeni va

avtomatlashtirilgan xabar yaratish amaliyoti xalqaro va milliy media keyslar asosida tipologik jihatdan tizimlashtirish zarurati dalillangan;

– media subyektlari, jurnalistlar, bloggerlar faoliyatida yuzaga kelayotgan dilemmalarni kompleks kontent-tahlil qiluvchi, media tashkilotlarining ichki etik reglamentlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi “Mediaetikada axloqiy muammolar va dilemmalar tahlili” (<https://mediaethicslaw.uz/>) nomli elektron platforma ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

onlayn media faoliyatida axloqiy me’yorlarni ta’minlash bo’yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

soha mutaxassislari, talabalar va fuqarolar o’rtasida o’tkazilgan so’rovnoma natijalari tahlil qilingan va xolis xulosalar shakllantirilgan;

O‘zbekiston media makonidagi holatlar xorijiy media tajribasi bilan solishtirilib, milliy va xalqaro qonunchilik hamda tahliliy materiallar asosida qiyosiy tahlil amalga oshirilgan;

“Audiovizual jurnalistika” mavzusida (6-jild) ilmiy-ommabop nashr yaratilgan;

O‘zJOKUda “Media huquqi va etikasi” fanidan maxsus sillabus va o‘quv dasturi ishlab chiqilgan.

Mazkur amaliy natijalar bo‘lg‘usi jurnalistlarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy kompetensiyalarni oshirishga xizmat qiladi va onlayn media etikasi sohasidagi islohotlar, ta’lim jarayoni hamda amaliy tadqiqotlarda samarali qo‘llanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** onlayn mediada axloqiy dilemmalarni tahlil etishda empirik usullar majmuidan foydalanilganligi, nazariy xulosalarning ilmiy manbalar bilan asoslanilganligi, amalga oshirilgan tahlillar tadqiqot predmeti va maqsad-mazmuniga to‘liq muvofiqligi, shuningdek, olingan natijalarning so‘rovnoma materiallari, milliy va xorijiy media amaliyoti hamda vakolatli tashkilotlar hisobotlari bilan tasdiqlanganligi orqali ifodalandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati onlayn mediada axloqiy dilemmalarning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilishi, deontologik, konsektivistik va virtual axloq paradigmalarning raqamli muhitda amalga oshishi, axloqiy dilemmalarning tendensiyalari va dinamikasi hamda media etika shakllanishidagi o‘rni tizimli tahlil qilindi. Milliy media amaliyoti uchun nazariy tavsiyalar xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish asosida ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati onlayn media faoliyatida axloqiy standartlarni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida axborot xizmatlari va jurnalistlar uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Jurnalistika yo‘nalishi uchun “Mediaetika” darsligi va fan doirasida uslubiy materiallar tayyorlandi. Shuningdek, natijalar media xodimlari va soha mutaxassislar uchun seminarlar, malaka oshirish kurslari va treninglarda metodik asos sifatida qo‘llanilib, milliy va xalqaro loyihalarni amalga oshirishda axloqiy muammolarni hal qilish va jamoatchilik bilan muloqot yo‘nalishlarida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli transformatsiya sharoitida onlayn media faoliyatidagi axloqiy dilemma va muammolar bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli transformatsiya sharoitida onlayn mediada yuzaga kelayotgan axloqiy dilemmalar milliy va xalqaro paradigmalari, deontologik, konsektivistik, intersubyektiv va gibril yondashuvlar amaliyotda foydalanilgan. (O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi 2025-yil 10-dekabrda 02-18/304-sonli ma’lumotnoma). Natijada internet OAV va blogosferada axloqqa zid materiallarni cheklash, dezinformatsiya hamda manipulyatsiyalarga qarshi tizimli choralarini kuchaytirishga ko‘maklashgan;

onlayn media makonida axloqiy me’yorlarni tartibga solish jarayoni bloggerlar va noan’anaviy axborot tarqatuvchilarning huquqiy maqomi, axborot erkinligi va axloqiy cheklovlar o‘rtasidagi muvozanat, fuqarolik nazoratining institutsionallashuvi kabi omillar kesimida tahlillari, milliy va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashish mexanizmlari Yangi media ta’lim markazida foydalanilgan. (NNT 2025-yil 12-dekabrda 28-sonli ma’lumotnoma) Natijada media ta’lim markazi materiallarining ishonchliligi va axloqiy me’yorlarga tayangan xolis axborot muhitini shakllantirishga amaliy xizmat qilgan;

ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt texnologiyalari integratsiyasi sharoitida yuzaga kelayotgan axloqiy dilemmalarning empirik tahlili “Ekolog” Jamoat birlashmasi faoliyatida samarali foydalanilgan. (“Ekolog” Jamoat birlashmasi 2025-yil 10-dekabrda 01-86-sonli ma’lumotnoma). Natijada raqamli

transformatsiya sharoitida axloqiy muammolarni chuqur anglash, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlarni tatbiq etish hamda kontent sifatini oshirishda unumli foydalanilgan;

telekanal ko'rsatuvlarini tayyorlash jarayonida raqamli media muhitida axloqiy me'yorlarni ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, faktlarni tekshirish hamda algoritmlar va sun'iy intellekt ta'siridagi axborot manipulyatsiyalarini bartaraf etishda amaliy foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Media Birlashmasining 2025-yil 19-avgustdagi 01-02/598-son ma'lumotnomasi). Natijada milliy media sohasida axloqiy va huquqiy standartlar mustahkamlandi hamda raqamli transformatsiya sharoitida xolis media muhiti ta'minlangan;

media subyektlari, jurnalistlar va blogerlar faoliyatida axloqiy dilemmalarni monitoring qilish, jurnalistika ta'limi va media tashkilotlarining ichki etik reglamentlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi "Mediaetikada axloqiy muammolar va dilemmalar tahlili" nomli elektron platformaga mualliflik huquqini deponentlash uchun Guvohnoma olingan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining 2025-yil, 2-dekabrda mualliflik huquqini deponentlash uchun berilgan 009551-sonli Guvohnomasi) Natijada algoritmlar va sun'iy intellektning media jarayonlarida yuzaga keladigan axloqiy dilemmalarni hal qilishdagi o'rni, ularning ijtimoiy-etik mas'uliyatga ta'sirini baholashning raqamlashtirilgan innovatsion dasturi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida media etika yo'nalishiga oid loyihalar doirasida professor-o'qituvchilar hamda jurnalistika, axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi talabalari uchun mahorat darslari tashkil etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan. Dissertatsiyaning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati yoritilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e'lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**Mediamakonda axloqiy muammolar: nazariy metodologik asos**" deb atalgan birinchi bobi uch fasldan tashkil topgan. Ishning 1.1.faslida "*Zamonaviy jamiyatda media etikaning nazariy paradigmalari*" deb nomlangan jurnalistikaning axloqiy tamoyillari, kasb etikasi va ularning jamiyatga ta'siri hamda deontologik, teleologik, intersubektiv va gibril paradigmalarning zamonaviy media makonida jurnalistning axloqiy mas'uliyatini boshqarishdagi roli bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Ma'lumki, zamonaviy media makonida jurnalist faoliyati huquqiy va axloqiy me'yorlar bilan tartibga solinadi. Axloqiy mezonlar jamiyat madaniy rivoji, kommunikativ ehtiyoj va texnologik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lib, jurnalistning kasbiy mas'uliyati va fuqarolik ongini ifodalaydi. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellektning ommaviy axborot vositalariga kirib kelishi axloqiy mas'uliyatni yangicha talqin qilishni talab qiladi.

Jurnalistika tarixi shuni ko'rsatadiki, kasb etikasi matbuot erkinligi bilan bog'liq holda jurnalist faoliyatida ijtimoiy adolat va haqiqatni himoya qilishga xizmat qiladi. XIX–XX asrlarda kasb kodekslari shakllanib, jurnalistlarning huquqiy va axloqiy majburiyatlari belgilangan. Zamonaviy media etikasi global va milliy me'yorlarni uyg'unlashtirishga, auditoriya oldidagi mas'uliyat, axborotning aniqligi va haqqoniyligini ta'minlashga qaratilgan. Jurnalistlar onlayn va raqamli muhitda ham professional axloqiy standartlarga rioya qilishi, axborotni tekshirish, manipulyatsiyadan saqlanish va jamiyat manfaatlarini ustuvor qo'yish zarur.

Demak, etika (yunoncha “etos” – odat) shaxs yoki ijtimoiy guruhning axloqiy xulq-atvor me’yorlarini o’rganuvchi fanni anglatadi. Axborot etikasi esa insonning axborotga munosabati va bu sohadagi xatti-harakatlarini baholaydi<sup>5</sup>. Axloq (lotincha “moralis” – axloqiy) inson harakatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy ong shakli va ijtimoiy munosabat turi sifatida namoyon bo’ladi. U “odob” tushunchasi bilan bog’liq, biroq undan farq qiladi: axloq umumiy me’yoriy asoslarni ifodalasa, odob (arabcha “adab”) jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarining tashqi ifodasidir<sup>6</sup>. Odob insonning jamiyatdagi muomala madaniyati, turmush tarzi va tashqi qiyofasida namoyon bo’lib, axloqiy me’yorlar, maqsadga muvofiqlik hamda estetik talablaridir<sup>7</sup>. Tadqiqot ishida mazkur ikki tushuncha axloq va odob bir-biri bilan uzviy bog’liq bo’lib, axborot etikasi kontekstida insonning axborotga munosabati va uning xulq-atvorini baholashda muhim metodologik asos sifatida qaraladi.

Kasb etikasi – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini muayyan ixtisoslik sohasiga tadbiq qiladigan me’yorlar, kasbiy burch, sha’n, or-nomus va qadr-qimmatni o’z ichiga olgan xulq-atvor kodeksi hisoblanadi<sup>8</sup>. Ilmiy adabiyotlarda “paradigma” tushunchasi bevosita Thomas Kuhn nomi bilan bog’liq. Olim mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: Paradigma<sup>9</sup> (grekcha — “namuna, andoza”) ma’lum ilmiy jamoa tomonidan qabul qilingan nazariy qarashlar, metodlar, qiymatlar va tadqiqot namunalari tizimi bo’lib, u fanning muayyan davrga xos rivojlanish bosqichlarini belgilaydi:

Tadqiqotda zamonaviy media etika quyidagi asosiy nazariy paradigmalarda namoyon bo’lishi aniqlandi:

1. Deontologik paradigma<sup>10</sup> – jurnalist faoliyatida kasbiy burch, qonun va qoidalarga qat’iy rioya qilish zarurligini asoslaydi. Bu yo’nalishda rostgo’ylik, aniqlik va shaxsiy mas’uliyat ustuvor hisoblanadi.

2. Telologik yoki konsektivistik paradigma<sup>11</sup> – axborot tarqatish jarayonida jurnalist faoliyatining ijtimoiy oqibatlari va jamoatchilikka ta’siri asosiy mezon sifatida baholanadi va jurnalistikaning jamiyatga keltirgan foydasi bilan belgilanadi.

3. Intersubektiv (kommunikativ) paradigma<sup>12</sup> – jurnalistika ijtimoiy muloqot va jamoatchilik fikri shakllanishi jarayonida hamkorlik va shaffoflikka asoslanishi kerakligini ilgari suradi.

4. Gibrud yoki plyuralistik paradigma<sup>13</sup> – zamonaviy raqamli makonda turli nazariy yondashuvlarni uyg’unlashtirish zarurligini ko’rsatadi. Bu paradigma turli madaniy, siyosiy va huquqiy muhitda jurnalistik me’yorlarning moslashuvchan bo’lishini talab etadi.

Mazkur paradigmalarda jurnalistik faoliyatda axborotning ishonchliligi, xolislik, jamoatchilik manfaati, inson qadr-qimmatini va auditoriya oldidagi javobgarlikni ta’minlashda muhim nazariy asos hisoblanadi.

Bobning “*Jurnalistikada etika tamoyillari va me’yorlari*” deb nomlangan 1.2. faslida jurnalist etikasining asosiy tamoyillari, xalqaro va mahalliy kodekslar hamda amaliy misollar orqali ularning kasbiy burch va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, tezkor qaror qabul qilish, insoniylik burchi va kasbiy majburiyat o’rtasidagi axloqiy dilemmalar ko’rib chiqilib, media etikasining zamonaviy jurnalistika muhitida ishonchlilik va demokratik jarayonlarni qo’llab-quvvatlashdagi ahamiyati ta’kidlangan. Axloq me’yorlariga amal qilish, odatda, ixtiyoriy xarakterga ega bo’lib, bu jarayon insonning ichki e’tiqodi, mas’uliyat hissi va ijtimoiy qadriyatlariga bo’lgan munosabati bilan belgilanadi. Axloqiy tamoyillar, xususan, jurnalist kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida “Har bir inson fikr va so’z erkinligi huquqiga ega...” deyiladi<sup>14</sup>. Jurnalist etikasining asosiy tamoyillari uzoq vaqt davomida shakllangan va hayotiy tajribadan o’tgan tamoyillardir, xususan:

<sup>5</sup>Тепляшина А.Н. Этический базис профессиональной культуры журналиста. // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. 2014. №6. – С. 90.

<sup>6</sup> Прокофьева Т. А. Этика профессиональной деятельности. – С. 2009. – С. 12.

<sup>7</sup> O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. “Etika” maqolasi.

<sup>8</sup> Do’stmuhamedov X.N. Jurnalistning kasb odobi muammolari. – T.: Yangi asr avlodi. 2007. – B.11.

<sup>9</sup> Кун Т. Структура научных революций. – М: АСТ, 2009. – С. 320.

<sup>10</sup> Положова Л. Р. Этические нормы журналистики в цифровую эпоху // Вестник МГУ. № 10. Журналистика. 2021. №2. – С. 25-32.

<sup>11</sup> Lynch J. A. Deon and Telos: How Journalisms Are Evolving Their Ethical Ideologies // Journal of Applied Journalism & Media Studies. 2022. №. 3. – P. 321-337.

<sup>12</sup> Habermas J. The Theory of Communicative Action. Reason and the Rationalization of Society. B: Beacon Press, 1984. – P. 99-105.

<sup>13</sup> Sălcudean M. Journalism in the Paradigm of Media Pluralism: Role, Mission, Values / M. Sălcudean // Saeculum. 2020. № 2. – P. 29-38.

<sup>14</sup> <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

Rostgo'ylik va aniqlik – media etikasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, axborotning ishonchliligini ta'minlaydi. Jurnalist ma'lumotlarni tekshirib, uni asl holatida yetkazishi zarur. Masalan, 2022-yilda Hindistonning "The Wire" nashri "Tek Fog"<sup>15</sup>. deb nomlangan, amalda mavjud bo'lmagan ilova yordamida Bharatiya Janata Party (BJP) siyosiy manipulyatsiya qilganligi haqida maqola chop etdi. Nashr, shuningdek, BJP vakili Amit Malviya'ning ijtimoiy media postlarini o'z ixtiyori bilan o'chirish imkoniyatiga ega ekanligini qayd qilgan. Keyinchalik ichki tekshiruv natijasida jurnalistlar tomonidan taqdim etilgan dalillar soxtalashtirilgani aniqlanib, maqolalar olib tashlandi va nashr o'z o'quvchilaridan rasmiy uzr so'radi.

Xolislik – jurnalistikaning asosiy tamoyili bo'lib, axborotni shaxsiy fikr va hissiyotlardan xoli holda taqdim etishni nazarda tutadi. Jurnalist barcha tomonlarning nuqtai nazarini teng yoritishi, faktlarni sharhlardan ajratishi zarur. Masalan, 2020-yil 28-29 yanvar kunlari Toshkentdagi «Lafarga» qabristonida qabrlar buzilgani haqidagi voqeani yoritishda jurnalist aholining xavotiri, rasmiy izohlar, ekspertiza natijalarini faktlarga tayangan holda taqdim qilgan<sup>16</sup>. Shu tarzda, xolislik tamoyiliga amal qilgan axborot jamoatchilikka ishonchli va xolis ko'rinishda yetkaziladi.

Mas'uliyat – jurnalistning jamoat oldidagi majburiyati va axborot tarqatish oqibatlarini anglash bilan belgilanadi. Bu tamoyil faktlarni aniqlik bilan tekshirish, yolg'on yoki manipulyativ ma'lumot tarqatmaslik, huquqiy va axloqiy me'yorlarga rioya qilishni talab qiladi. Masalan, Xitoylik jurnalist Chjan Chjan pandemiya boshlanishi haqidagi xabarlarini taqdim etgani uchun qamoqqa olingan va davlat cheklovlari bilan jamoat manfaatlari o'rtasidagi axloqiy va huquqiy ziddiyatni namoyon qilgan<sup>17</sup>.

1983-yil 20-noyabr kuni Parij shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro jurnalistlar federatsiyasi yig'ilishida YUNESKO tashabbusi bilan "Jurnalist kasbiy axloqining xalqaro tamoyillari" qayta tahrirdan o'tkazilib, rasmiy ravishda qabul qilindi. Ushbu tamoyillar quyidagilardan iborat<sup>18</sup>:

1. Fuqarolarning xolis va haqqoniy axborot olish huquqi. Mazkur tamoyilga muvofiq fuqarolar demokratik jamiyatda qaror qabul qilish uchun to'g'ri va ishonchli axborotga ega bo'lishi kerak. Bu tamoyil jurnalist faoliyatining asosiy huquqiy va axloqiy poydevorini tashkil etadi.
2. Voqealarni xolis, muvozanatli va ishonchli yoritish — jurnalistning asosiy kasbiy burchi, ya'ni jurnalist voqealarni shaxsiy qarashlardan holi, faktlarga asoslangan holda yetkazishi, tarafkashlikdan uzoq bo'lishi lozim.
3. Jurnalistning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati. Demak, jurnalist o'z ishida jamiyatning manfaatlarini hisobga olishi va o'z faoliyati oqibatlariga mas'ul bo'lishi shart.
4. Jurnalist faoliyatida kasbiy adolat va halollik tamoyillariga rioya etishi shart. Chunki axloq kodeksi jurnalistni so'z va harakatlarida halollik, adolat va kasbiy standartlarga sodiq bo'lishga undaydi.
5. Jamiyatning axborotga egalik huquqi hamda OAV faoliyatida ishtirok etishi. Mazkur tamoyilga ko'ra, axborot jamiyatning umumiy boyligi sifatida qaraladi, ya'ni barcha fuqarolar mavjud axborot resursdan ochiq va erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, jurnalistlarning vazifasi fuqarolarni axborot jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantirish, ularning qaror qabul qilish va ijtimoiy hayotda faolligini ta'minlashdan iborat.
6. Shaxsiy hayot daxlsizligi va inson sha'ni hamda qadr-qimmatini hurmat qilish, ya'ni jurnalistlar shaxsiy hayotni himoya qilish, shaxsni kamsitmaslik va hurmat qilish majburiyatiga ega.
7. Jamiyat manfaatlarini ustuvor tamoyil sifatida e'tirof etish. Mazkur tamoyil jurnalist qaror va xabarlarida jamiyatning umumiy manfaatlarini birlamchi o'ringa qo'yishi lozimligini anglatadi.
8. Umuminsoniy qadriyatlar va madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish. Ma'lumki, jurnalistika madaniy va diniy xilma-xillikka hurmat bilan yondashishi, stereotiplardan qochishi kerak.
9. Yangi xalqaro axborot va kommunikatsiya tartibining rivojlanishiga ko'maklashish<sup>19</sup>. Bu tamoyil jurnalistikaning global axborot maydonida mas'uliyatli va samarali faoliyat yuritish zaruratini ta'kidlaydi.

<sup>15</sup> <https://www.thenewsminute.com/news/wire-retracts-meta-stories-tek-fog-investigation-be-reviewed-too-169165>.

<sup>16</sup> <https://kun.uz/news/2020/01/31/kechasi-bilan-uxl olmay-chiqdim-lafarga-qabristoni-bilan-bogliq-xabar-jamoatchilikni-oyoqqa-turgizdi>

<sup>17</sup> <https://kun.uz/news/2025/09/21/covid-19-pandemiyasi-boshlanishini-yoritgan-xitoylik-jurnalist-4-yilga-qamaldi>

<sup>18</sup> International Principles of Professional Ethics in Journalism. – Paris: UNESCO, 1983.

<sup>19</sup> Qosimova N. Jurnalist kasb odobi masalalari yoki O'zbekiston jurnalistlari kasb odobi kodeksi qachon qabul qilinadi? // Nargis.uz. 19.10.2017. <http://nargis.uz/?p=161>

Chunki jurnalistika butun dunyo miqyosida axborot oqimlarini rivojlantirish va xalqaro kommunikatsiya me'yorlarini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega.

Ushbu tamoyillarning qabul qilinishiga ommaviy axborot vositalarida kasbiy axloq me'yorlari bilan bog'liq salbiy holatlar kuzatilishi sabab bo'lgan. Masalan, 1980-yil 28-sentyabrda "The Washington Post" nashrida amerikalik jurnalist Janet Kuk tomonidan yozilgan "Jimmy's World" sarlavhali maqola chop etildi<sup>20</sup>. Materialda sakkiz yoshli giyohvand bola hayoti haqidagi tahliliy ocherk taqdim etilgan bo'lib, u Amerika jamoatchiligida katta rezonans keltirib chiqardi. Mazkur shov-shuvga sabab bo'lgan hodisa jurnalistning Pulitzer mukofotiga munosib ko'rilishi, ko'p o'tmay mukofotni qaytarib olinishi va muallifning ishdan ketishi bilan yakunlandi. Negaki maqolada keltirilgan voqealar va faktlar haqiqatga mos kelmasligi keyinchalik aniqlangan, bu esa jurnalistikaning axloqiy mas'uliyati, faktlarni tekshirish va xolis yoritish tamoyillarining buzilganini ko'rsatdi.

Mahalliy axborot makonida jurnalistik etikaning muhim tamoyillaridan biri aybsizlik prezumpsiyasiga rioya etishdir. O'zbekiston Milliy axborot agentligi saytida e'lon qilingan "Shayxontohurda ekstremist ayol qo'lga olindi" sarlavhali xabar ushbu tamoyil buzilgan holatlardan biridir. Bu holat jurnalistning aybsizlik prezumpsiyasiga, kasbiy halollik va inson sha'nini hurmat qilish kabi axloqiy majburiyatlariga zid bo'lganini ko'rsatadi. Keys jurnalistik faoliyatda etik me'yorlar va huquqiy tamoyillar o'zaro bog'liqligini hamda xolislik va ijtimoiy mas'uliyatning amaliy ahamiyatini yaqqprezumpsiyasiol ifodalaydi<sup>21</sup>. Zamonaviy kodekslarda asosan "manfaatlar ziddiyatiga" barham berish birinchi o'rinda turadi. Bunda jurnalist, auditoriya, jamiyat manfaati va kasbiy majburiyat o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar nazarda tutiladi. Aksariyat holatlarda jurnalist insonga qiyin vaziyatlarda birinchi galda yordam berish kerakmi yoki mazkur holatni yoritishi zarurmi, degan savol turadi. Tezkorlik bilan qaror qabul qilish zaruriyati texnogen, tabiiy, harbiy halokatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bobning 1.3. fasli "*Raqamli mediada axloqiy dilemmalarning tendensiyalari va dinamikasi*" deb nomlangan, raqamli mediada yuzaga keladigan axloqiy dilemmalar, ularning nazariy yondashuvlari va jurnalistning kasbiy majburiyati hamda jamiyat va inson qadriyatlarini uyg'unlashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, soxta xabarlar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va fojialarni yoritish orqali media etikasining zamonaviy jurnalistika muhitidagi dolzarbligi ko'rsatilgan.

Axloqiy dilemmalar inson faoliyatidagi eng murakkab ma'naviy qaror qabul qilish jarayonlaridan biri sifatida qaraladi. Ular shaxs yoki institut oldida turli qadriyatlar, manfaatlar va majburiyatlar to'qnashganda yuzaga keladi. Jurnalistika kontekstida bu, jurnalistning kasbiy burchi va mas'uliyati, jamoatchilik manfaatlarini hamda inson qadriyatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan tanlovlar bilan bog'liqdir. Dilemma tushunchasi lotincha dilemma va grekcha *di-* ("ikki") hamda *lemma* ("asos") so'zlaridan kelib chiqqan<sup>22</sup>. U ikki noqulay variant orasida tanlov qilish zaruratini anglatadi. Ilmiy manbalarda dilemmalarning asosiy xususiyatlari quyidagicha tasniflanadi. Dilemmalar odatda axloqiy yoki etik xususiyatga ega bo'lib, qaror qabul qiluvchi tomon qaysi yo'lni tanlashni aniq bilmaydi. Har bir tanlov salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qaror qabul qilish jarayonida psixologik zo'riqish va qarashlar orasidagi to'qnashuv yuz beradi. Axloqiy dilemmalarni ilmiy tahlil qilish va ularni samarali boshqarishda ularni tasnifga ajratish maqsadga muvofiq, bu esa qaror qabul qilish jarayonining murakkabligini tushunish va har bir vaziyatni kontekstual ravishda baholash imkonini beradi. Dilemma turlari:

Absolyut dilemma<sup>23</sup> bir vaqtning o'zida bir nechta etik tamoyil va qoidalar o'rtasida to'liq ziddiyat yuzaga keladi; qaysi prinsip ustunligini shaxsiy qarash va kontekst belgilaydi. Masalan, bemor haqidagi ma'lumotni oshkor qilish jamoatchilik manfaatiga mos, lekin shaxsiy hayotga zarar yetkazishi mumkin.

Relyativ dilemma<sup>24</sup> madaniy va ijtimoiy kontekstga bog'liq; bir hududda maqbul bo'lgan amal boshqa hududda tanqid qilinishi mumkin.

<sup>20</sup><https://www.washingtonpost.com/archive/politics/1980/09/28/jimmys-world/605f237a-7330-4a69-8433-b6da4>

<sup>21</sup> YuNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi, Sodiqova A., Qosimova N. Jurnalistlarning xavfsizligi va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorligi masalalari: amaliy tadqiqotlar to'plami. – T.: "Baktria Press", 2019. – B.15.

<sup>22</sup> Harper D. "Etymology of dilemma" / Douglas Harper. Online Etymology Dictionary. <https://www.etymonline.com/word/dilemma>.

<sup>23</sup> Gunarathne G. R. Niromi. An Analytical Study of Ethical Dilemmas in Journalism: Negotiating Truth, Privacy and the Public Interest in the Digital Era // International Journal of Research in Social Sciences. 2025. Vol. 9, Issue 13. –P. 45–60.

<sup>24</sup> Newman, J. Ethical Relativism // Laval théologique et philosophique. 1972. № 1. – P. 63–74.

Qarorsizlik dilemmasi<sup>25</sup> bir nechta variant orasida ustuvorlikni aniqlash qiyin; masalan, tez axborot yetkazish va ma'lumotni to'liq tekshirish o'rtasidagi muvozanat.

Xorijlik tadqiqotchilar Rey Muras, Bellón Rodríguez va Galocha López (2020) Parij (2015), Nisa (2016) va Barselona (2017)da sodir etilgan terrorchilik hujumlarini xalq media manbalarda qanday grafik tarzda yoritilganini tahlil qilgan. Tadqiqotda Le Figaro, The Times va The New York Times<sup>26</sup> kabi yirik nashrlar sahifalari tahlil qilingan bo'lib, asosiy e'tibor qurbonlarning tasvirlanishi va suratlarda qo'llanilgan axborot-estetik usullarga qaratilgan. Natijalarga ko'ra, ko'p hollarda jurnalistlar qurbonlarning shaxsiy qiyofasi yoki individual ma'lumotlarini emas, balki hodisaning ramziy belgilari orqali voqea mohiyatini ifoda etganlar. Masalan, Nisa hujumida qurbonlarning tasvirlaridan ko'ra yuk mashinasi tasviri axborotda asosiy ramz sifatida qo'llanilgan.

Demak, media sohasidagi axloqiy dilemma bu jurnalist, muharrir yoki ommaviy axborot vositasi faoliyati jarayonida jamoat manfaati, kasbiy burch, axborotning haqqoniyligi va shaxsning daxlsizligi kabi axloqiy tamoyillar o'zaro ziddiyatga kirishgan holat bo'lib, unda qabul qilinadigan har bir qaror muayyan axloqiy qadriyatni ta'minlagan holda boshqa bir muhim axloqiy me'yorning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda, jurnalistikadagi axloqiy dilemmalarning asosiy rivojlanish tendensiyalari quyidagilardan iborat:

1. Soxta xabarlar va dezinformatsiya muammosi jurnalistlardan faktlarni sinchiklab tekshirish va ishonchli manbalarni aniqlashni talab qiladi.

2. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi jurnalistlarni shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, ulardan foydalanish va manbalarni himoya qilish bo'yicha axloqiy dilemmalarga duchor qilmoqda, shu bois maxfiylikni saqlash va manbalar xavfsizligini ta'minlash tobora dolzarb bo'lmoqda.

3. Tijoriy yoki siyosiy aloqalar tahririyat mustaqilligi va xolisligiga ta'sir qilganda, jurnalistlar va OAV manfaatlari o'rtasida to'qnashuv yuzaga keladi. Moliyalashtirish jurnalistikaning mustaqilligiga qanday ta'sir qilishi mumkinligi masalasi o'rganiladi.

4. Yangiliklar tez tarqaladigan muhit jurnalistlarni chop etish tezligi va faktlarni tekshirish zarurati o'rtasida dilemmaga duchor qiladi. Ijtimoiy media platformalarida e'lon qilingan kontent uchun mas'uliyat va ishonchsiz materialni so'z erkinligini cheklamasdan boshqarish masalasi dolzarbdir.

5. Fojia va zo'ravonlik haqida xabar berish zarurati jurnalistlarni qurbonlar va ularning oilalariga hurmat bilan muvozanatni saqlashga majbur qiladi. Shov-shuvli sarlavhalar orqali mashhurlikni oshirish uchun fojialardan foydalanmaslik bo'yicha axloqiy dilemmalar yuzaga keladi.

Bu tendensiyalar jurnalistikaning yangi muammolarga moslashishi va jamoatchilik ishonchini saqlab qolish va jamoatchilikni xabardor qilishdagi asosiy rolini bajarish uchun o'zining axloqiy me'yorlarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish zaruratini taqozo qiladi. Yuqoridagi tendensiyalar asosida, mediada axloqiy dilemmalar tushunchasiga tadqiqotimiz doirasida mualliflik ta'rifini shakllantirdik. Demak, media sohasidagi axloqiy dilemma bu jurnalist, muharrir yoki ommaviy axborot vositasi faoliyati jarayonida jamoat manfaatlari, kasbiy burch, axborotning haqqoniyligi va shaxsning daxlsizligi kabi axloqiy tamoyillardan kamida ikkitasi o'zaro zid keladigan holat bo'lib, bunda qabul qilinadigan har bir qaror muayyan axloqiy qadriyatni ta'minlash bilan birga boshqa muhim axloqiy me'yorning cheklanishiga olib kelishi mumkin<sup>27</sup>.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jurnalistikada media etika nazariyalari, tamoyillari va dilemmalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular zamonaviy axborot makonida jurnalistning kasbiy madaniyatini belgilaydi. Jurnalistikada etik me'yorlarga amal qilish nafaqat kasbiy burch, balki jamiyatning ishonchi va medianing ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlaydigan asosiy omildir. Shu bois, media etikaning nazariy asoslari, me'yoriy qoidalari va amaliy dilemmalari bo'yicha tizimli yondashuv jurnalistikada kasbiy standartlarni mustahkamlash va global media muhitda milliy jurnalistikaning obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa shuki, tamoyillar — nazariy asos, dilemmalar — amaliy sinov, jurnalistning qarori esa media makonida ishonchning barqarorligini belgilovchi asosiy omildir.

<sup>25</sup> Körner, A., Deutsch, R. Deontology and Utilitarianism in Real Life: A Set of Moral Dilemmas Based on Historic Events // Personality and Social Psychology Bulletin. 2023. Vol. 49, № 10. – P. 1511–1528. (22.07.2025).

<sup>26</sup> Rey Mu Vittxen, M. B. Between harm and sensationalism: Court reporters negotiating objectivity when reflecting on ethical dilemmas in the Submarine Murder Trial // Nordicom Review. 2023. №1. –P. 106–122.

<sup>27</sup> Ta'kid bizniki. (F.X.)

Ikkinchi bob “**Onlayn mediada axloqiy dilemmalarning tanqidiy tahlili va huquqiy-me’yoriy jihatlarini**” deb nomlangan. Tadqiqotning “*Onlayn mediada axloqiy dilemmalar: muammo va istiqbollari*” deb nomlangan 2.1. faslida raqamli mediada yuzaga keladigan axloqiy dilemmalar, ularning nazariy yondashuvlari va jurnalistning kasbiy hamda ijtimoiy majburiyatlari tahlil qilinib, media etikaning zamonaviy jurnalistika muhitida dolzarbligi isbotlandi. Mediamakondagi universallashtiruv jurnalistlarga dolzarb axborot yaratish, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish, jamoatchilik fikriga ta’sir etish hamda fuqarolik pozitsiyasini namoyish etish imkonini yaratdi. Internet ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda salbiy axborot tarqalishi professional jurnalistlar oldida yangi axloqiy dilemmalarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, raqamli platformalarda yolg‘on xabarlar, dezinformatsiya, feyk kontent hamda vahimaga sabab bo‘luvchi materiallarning tez tarqalishi ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy burchini yanada muhimlashtiradi.

Onlayn media amaliyotida keng tarqalgan axloqiy dilemmalardan biri fojialar qurbonlarining fotosuratlarini e’lon qilish masalasidir. Ikkinchi jahon urushi, shuningdek, Suriya, Ukraina va Rossiyadagi harbiy nizolar misolida ko‘rinib turibdiki, ayrim hollarda fotosuratlar jamoatchilik fikrini shakllantirish, raqib tomonni qoralash yoki hissiy ta’sirni kuchaytirish maqsadida fotopostanovka yoki fotofeyk shaklida qo‘llanilmoqda<sup>28</sup>. Bu jarayon jamoat manfaatlari bilan shaxsning shaxsiy hayoti va qadriyatlarini o‘rtasidagi axloqiy ziddiyatni keskinlashtiradi. Ta’kidlash joizki, onlayn mediada axloqiy dilemmalar axborot orqali ijtimoiy xavotir va vahima yuzaga kelish holatlarida ham namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda “Hisorak suv ombori yorilgani” haqidagi tasdiqlanmagan xabar aholi o‘rtasida vahima keltirib chiqarib, ayrim fuqarolarning uylarini tark etishiga sabab bo‘lgan. Bu holat so‘z erkinligi va jamiyat xavfsizligi o‘rtasida muvozanat masalasini dolzarb qilib qo‘yadi<sup>29</sup>. Shuningdek, 2025-yil Jizzaxda egizak chaqaloqning biri noma’lum shaxs tomonidan o‘g‘irlab ketilishi shifoxonalarda xavfsizlik tizimi samaradorligini baholash zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jurnalistlar hodisani yoritishda shifoxona nomini oshkor qilish va shaxsiy obro‘ni himoya qilish masalasiga duch keladi<sup>30</sup>. Mazkur misol shifoxonalarda xavfsizlik tizimi hamda tezkor jurnalistik surishtiruvda axloqiy yondashuvni uyg‘unlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Davlat kompaniyalari faoliyatida korporativ manfaatlar bilan ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj xodimlar huquqlari o‘rtasidagi ziddiyat alohida axloqiy dilemma sifatida namoyon bo‘ladi. Uztelecom kompaniyasi bilan bog‘liq keysda ijtimoiy ahvoli og‘ir xodim bilan sudlashuv jamoatchilikda adolat va insonparvarlik tamoyillariga zid holat sifatida baholangan<sup>31</sup>. Bu vaziyat kompaniya imidji va jamoatchilik ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Davlat amaldorlarining xizmat safarlari bilan bog‘liq axborotlarni yoritishda ham axloqiy ziddiyatlar yuzaga keladi. Bir tomondan, xavfsizlik va xizmat samaradorligi talab etilsa, ikkinchi tomondan, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish va jamoatchilik oldida hisobdorlik ta’minlanishi lozim. Finlyandiya va Singapur amaliyoti bilan qiyosiy tahlil mahalliy media makonda shaffoflik yetishmasligi jamoatchilik ishonchi pasayishiga olib kelayotganini ko‘rsatadi<sup>32</sup>.

Tahlillardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonning zamonaviy media makonida onlayn media professional jurnalistik faoliyat bilan bog‘liq bir qator axloqiy dilemmalarga duch kelmoqda. Ayniqsa, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish klikbeyt sarlavhalar va sensatsiyadan foydalanish, reklama beruvchilar yoki hokimiyat manfaatlariga mos keladigan materiallarni bir tomonlama taqdim qilish kabi holatlar axloqiy muammo hisoblanadi. Demak, onlayn mediada axloqiy dilemmalarni hal qilish uchun jurnalistlar faqat faktlarga asoslangan, aniq va mas’uliyatli axborot tarqatishlari kerak. Bu masala turli etik paradigmalarni nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinadi: utilitaristik yondashuv jamiyat uchun umumiy foydani maksimalashtirishni, universalistik yondashuv insoniylik va adolatni ta’minlashni, relyativistik yondashuv esa mahalliy madaniy qadriyatlar va auditoriya kontekstini inobatga olishni talab qiladi.

<sup>28</sup> Feodosiyskiy Gorodskoy Dom Kulturi. <https://feo-gdk.crm.muzkult.ru/>

<sup>29</sup> Hisorak suv ombori yorilgani / Darakchi.uz : 2025. <https://darakchi.uz/uz>

<sup>30</sup> Egizaklardan biri o‘g‘irlab ketildi: Jizzaxdagi shifoxonada yangi tug‘ilgan egizak chaqaloqning biri o‘g‘irlab ketilgani haqida rasmiy munosabat // 2019. [https://t.me/OPER\\_UZ](https://t.me/OPER_UZ)

<sup>31</sup> Uztelecom ijtimoiy himoyaga muhtoj ayolning qonuniy haqqini tan olish o‘rniga sudlashmoqda // 2025. [https://t.me/anora\\_sodiq](https://t.me/anora_sodiq)

<sup>32</sup> Xalq ichida amaldorga nima bor? Finlyandiya, Singapur prezidentlari oddiy yo‘lovchi tashiydigan samolyotda davlat tashrifini amalga oshirishi mumkin //2025. [https://t.me/anora\\_sodiq/58](https://t.me/anora_sodiq/58)

Umuman, jurnalistlarning kasbiy va axloqiy kompetensiyasini tizimli ravishda oshirish, tahririyatlarda majburiy faktcheking va ichki etik nazorat mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, mustaqil va jamoatchilikka tayanuvchi o'zini o'zi tartibga solish institutlarini rivojlantirish mavjud muammolarni kamaytirishning asosiy yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, auditoriya media savodxonligini oshirish va tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqali axborot muhitida mas'uliyat va ishonch tamoyilini qaror toptirish bevosita onlayn mediada axloqiy dilemmalarni bartaraf etishda asosiy vazifa hisoblanadi. Shu ma'noda, onlayn mediada yuzaga kelayotgan axloqiy dilemmalar jurnalistning ijtimoiy mas'uliyati, inson qadri va jamiyat manfaatlarini ustuvor qo'yishga asoslangan professional yondashuvni talab etadi. Milliy media amaliyotini xalqaro jurnalistika etikasi standartlari bilan uyg'unlashtirish, axloqiy me'yorlarning real ijrosini ta'minlash hamda rivojlantirish O'zbekiston onlayn media makonida barqaror, ishonchli va ijtimoiy foydali axborot muhitini shakllantirishning muhim istiqbollari sifatida baholanadi.

Mazkur bobning 2.2. fasli "*O'zbekistonda internet, OAV sohasida axloqiy me'yorlarni tartibga solishning huquqiy va institutsional mexanizmlari*" deb ataladi. Bunda O'zbekistonning internet OAV faoliyatini axloqiy me'yorlar va jurnalistik etikani huquqiy hamda institutsional mexanizmlar orqali tartibga solishga bo'lgan intilishi, shuningdek, blogerlar va noan'anaviy axborot tarqatuvchilarning huquqiy maqomi, axborot erkinligi va axloqiy cheklovlar o'rtasidagi muvozanat masalalari yetarlicha rivojlanmagani tahlil qilingan.

Ma'lumki, zamonaviy axborot makonining jadal rivojlanishi, ayniqsa internet OAV faoliyatining kengayishi, axborot sohasida axloqiy me'yorlarga rioya etish muammosini yanada dolzarb qildi. O'zbekistonda internet OAVning axloqiy chegaralari nafaqat jurnalistikaning deontologik tamoyillari, balki huquqiy va institutsional mexanizmlar orqali ham tartibga solinadi. Tadqiqotning mazkur faslida "O'zbekistonda internet OAVda axloqiy me'yorlarni tartibga solishning huquqiy va institutsional mexanizmlari" mavzusiga oid dilemmalar, ya'ni ikki qarama-qarshi nuqtayi nazar o'rtasidagi murakkab va bahsli holatlar amaliy misollarda ko'rib chiqildi. Masalan, 2024-yilda Uchtepa tuman hokimligi tomonidan "Ekolog" jamoat birlashmasiga tegishli videolavha mualliflarning roziligisiz tarqatilishi mualliflik huquqlarining buzilishi bilan bog'liq institutsional va axloqiy muammo sifatida baholanadi<sup>33</sup>. Mazkur holat O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177<sup>1</sup>-moddasi doirasida huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Axloqiy nuqtai nazardan, davlat organi tomonidan kontentni o'zlashtirish xolislik, adolat va intellektual mulkka hurmat tamoyillariga zid bo'lib, institutsional mexanizmlar doirasida jamoatchilik ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2025-yilda o'tkazilgan "Media lider" tanlovi doirasida bloger Gayrat Do'stov va O'zJOKU rektori professor Sherzodxon Qudratxo'ja o'rtasidagi raqobat ijtimoiy rezonans uyg'otdi<sup>34</sup>. Ushbu jarayonda ayrim ommaviy bayonotlar va ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralar shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qiluvchi axloqiy muammolarni yuzaga keltirdi. Xususan, shaxsni ommaviy ravishda kamsitish yoki tuhmat qilish holatlari uning obro'-e'tiboriga putur yetkazishi mumkin. Mazkur vaziyat O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek, Jinoyat kodeksining 139 va 140-moddalari doirasida huquqiy baholanishi lozim. Institutsional nuqtai nazardan esa media sohasidagi tanlovlarning shaffofligini ta'minlash, baholash mezonlarining ochiqligi hamda davlat institutlari tomonidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish axloqiy ziddiyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Internet makonining kengayishi blogerlarning huquqiy maqomi noaniqligi, global platformalar siyosatining milliy me'yorlarga mos kelmasligi va mediasavodxonlik darajasining pastligi kabi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda. YouTube, Telegram va Facebook kabi global platformalarning ichki

kontent siyosati axloqiy cheklovlarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, biroq ularning qoidalari mahalliy, huquqiy va madaniy me'yorlar bilan to'liq uyg'unlashmagan.

Xalqaro tashkilotlar (YuNESKO, "Chegarasiz muxbirlar") tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar milliy media makonida axloqiy va professional standartlarni takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun blogerlar uchun axloqiy kodeks ishlab chiqish, mediasavodxonlikni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va kontent moderatsiyasini milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish zarur. O'zbekistonda internet OAVda axloqiy me'yorlarni tartibga solish huquqiy normalar, davlat institutsional nazorati va jamoatchilik ishtirokini o'z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida shakllanmoqda. Ammo mazkur tizimni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, o'zini-o'zi tartibga solishni kengaytirish va mediasavodxonlikni oshirish orqali yanada takomillashtirish talab etiladi. Mazkur yo'nalishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, internet OAV faoliyati uchun axloqiy me'yorlar yagona va aniq standart sifatida mustahkamlanmagan. Shuningdek, blogerlar faoliyatini tartibga soluvchi maxsus axloqiy kodeks yo'q, internet tarmog'idagi ma'lumotlarga monitoring o'tkazish jarayonida texnik ta'minot va malaka oshirish masalalarida yetarli imkoniyatlar mavjud emas. Umuman, global axborot oqimlari sharoitida ushbu tizimni yanada takomillashtirish, xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va axborot maydonining barqaror rivojlanishini ta'minlash zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Ishning "*Jurnalistlik faoliyatini tartibga solishda deontologik va konsektivistik yondashuvlar*" deb nomlangan 2.3. faslida deontologik va konsektivistik yondashuvlar jurnalistik faoliyatni tartibga solishda qanday amaliy va nazariy asosga ega ekanligi, shuningdek, xalqaro va O'zbekiston amaliy misollari orqali ularning jurnalist qarorlari va media siyosatidagi ijtimoiy, siyosiy va huquqiy oqibatlari tahlil qilingan, shuningdek, ikki yondashuvni uyg'un qo'llash orqali axborotning axloqiy, ijtimoiy va samarali tarqatilishini ta'minlash muhimligi ko'rsatib berilgan.

Deontologik yondashuv jurnalistning huquqiy va axloqiy burchlariga, natijalardan qat'i nazar, kasbiy tamoyillarga qat'iy rioya etishni talab qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, haqiqatni yoritish, faktlarni tekshirish, manbalarning maxfiylikni saqlash va shaxsiy hayotga hurmat ko'rsatish jurnalistning universal kasbiy majburiyatlari hisoblanadi. Konsektivistik yondashuv jurnalistik qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini baholashga asoslanib, axborotning jamoatchilik manfaatlariga mosligini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Amaliyotda deontologik va konsektivistik yondashuvlar bir-birini to'ldirib, zamonaviy jurnalistikada muvozanatli axloqiy qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi.

Xalqaro media amaliyotida deontologik yondashuv ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2025-yilda Avstriyaning Gras shahrida sodir bo'lgan maktab voqeasidan so'ng Avstriya Press Kengashi jurnalistlarga jabrlanganlar oilalarining shaxsiy hayotini himoya qilishni tavsiya etdi. Natijada OAV faqat umumiy ma'lumotlar bilan cheklanib, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor etmadi va shov-shuvdan voz kechib, deontologik tamoyillarga amal qildi<sup>35</sup>. Tahlil qilingan xalqaro misollar deontologik yondashuvning zamonaviy media muhitida shaxsiy hayotni himoya qilish, zarar yetkazmaslik va xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. AQSh, Buyuk Britaniya va Avstriya tajribalari jurnalistik faoliyatda jamoat manfaati sensatsion axborotdan ustun qo'yilishi lozimligini tasdiqlaydi. Ispaniyada FAPE tomonidan qabul qilingan "Jurnalist kasbining deontologik kodeksi" shaxsiy hayotni himoya qilish, qonunga rioya qilish va manbalar maxfiylikni jurnalistika amaliyotidagi asosiy tamoyil sifatida belgilaydi<sup>36</sup>. Lotin Amerikasida (Argentina, Kolumbiya) jurnalistlar media etika kodekslariga qat'iy rioya qilishlari va fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik huquqlarini hurmat qilishlari talab etiladi, ya'ni jamoat manfaatidan yoki sensatsion axborotdan ustun turuvchi axloqiy majburiyatlar deontologik tamoyillar orqali namoyon bo'ladi<sup>37</sup>.

Xalqaro manbalarni o'rganish asosida O'zbekiston amaliyotida deontologik yondashuvga oid tahlillarni keltirish o'rinli deb topildi. Xorazm viloyati Shovot tumanidagi №7 maktab o'qituvchisining maktab hududidan tashqarida o'quvchiga tajovuz qilgani aks etgan video tarqaldi. Maktabgacha va maktab

<sup>35</sup> <https://www.apa.at/news/graz-school-crime-media-ethics>

<sup>36</sup> Deontological Code for the Journalistic Profession. Federation of the Spanish Press (FAPE), 28.11.1993. <https://research.tuni.fi/ethicnet/country/spain/deontological-code-for-the-journalistic-profession/>

<sup>37</sup> Díaz-Campo, J., & Chaparro-Domínguez, M. A. (2020). Computational journalism and ethics: An analysis of deontological codes of Latin American. *Icono 14*, 18 (1), 10–31. <https://doi.org/10.7195/ri14.v18i1.1488>

ta'limi boshqarmasi xodimi tomonidan o'qituvchiga intizomiy jazo tayinlandi. Jurnalistlar hodisani yoritishda bolalarning shaxsiy hayotini himoya qilib, yuzini yashirish orqali deontologik tamoyillarga amal qilishgan<sup>38</sup>. Shuningdek, Qo'shrabot tumanida 22-oktabrda gaz portlashi natijasida R.S., M.S. va ularning farzandlari F.X. va D.X. halok bo'ldi. Jurnalistlar voqeani yoritishda faktlarga asoslangan, aniq va tekshirilgan ma'lumotlar berib, qurbonlar va ularning oilalarining shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilgan. Mazkur misollar deontologik yondashuvda axloqiy burch va professional majburiyat ustuvor ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, jamoatchilik xavfsizligi, davlat idoralari va media o'rtasidagi axloqiy va huquqiy mas'uliyatni tasdiqlovchi amaliy misol sifatida ahamiyatga ega. 2024-yil 25-yanvarda Yunusobod tumanidagi 255-maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachining bolaga shippak uloqtirgani ijtimoiy tarmoqlarda aks etdi. Hodisa bolalar ombudsmani va Ichki ishlar organlari tomonidan o'rganildi<sup>39</sup>, tarbiyachiga nisbatan javobgarlik choralari qo'llandi. Demak, deontologik yondashuv shaxsiy hayotni himoya qilish, zarar yetkazmaslik va maxfiylikni ta'minlash kabi jihatlarda aks etar ekan, jurnalist jamoat qiziqishi va sensatsion axborotga berilmasdan kasbiy burchiga rioya qilgan holda axborotni yetkazish kerak. Binobarin, AQShda deportatsiya xavfi ostidagi talabalar manfaatini himoya qilish uchun materiallarni anonimlashtirish, Avstriyada Gras maktab voqeasida jabrlanuvchilarni himoya qilish va Buyuk Britaniyada PJS v News Group ishida shaxsiy daxlsizlikni jamoat qiziqishidan ustun qo'yish deontologik yondashuvning umumiy mohiyatini aks ettiradi. Shu tariqa, kasbiy burch va axloqiy javobgarlik jurnalistikaning asosiy mezon sifatida turli mamlakatlarda ustuvor hisoblanadi. Natijada deontologik yondashuv nafaqat milliy, balki xalqaro jurnalistikada ham etik mezon sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat axborot tarqatish jarayonida sensatsiya, tijorat yoki auditoriya bosimiga qaramay, jurnalistikaning axloqiy barqarorligi va jamiyat oldidagi ishonchini ta'minlaydi.

Konsektivistik yondashuvning nazariy asosi shundaki, biror harakatning axloqiy qiymati unga sabab bo'lgan oqibatlarining umumiy foydalilik darajasi bilan belgilanadi, ya'ni qaror yoki amal ijtimoiy farovonlikni, umumiy manfaatlar miqdorini oshirsa, u axloqiy jihatdan to'g'ri, aks holda noto'g'ri hisoblanadi. Shu bois mazkur yondashuvning asosiy tamoyili: "Natija qanchalik yaxshilik keltirsa, qaror ham shunchalik axloqiy to'g'ri hisoblanadi"<sup>40</sup>.

O'zbekistonda onlayn media amaliyotida konsektivistik yondashuv, asosan, klikbeyt sarlavhalarni cheklash, shaxsiy hayotni himoya qilish va feyk ma'lumotlarni tarqatmaslik orqali namoyon bo'ladi. 2020-yil pandemiya davrida ayrim nashrlarning vahima uyg'otuvchi sarlavhalari oziq-ovqat do'konlarida sun'iy tanqislikni yuzaga keltiradi. Ayni holat konsektivistik yondashuvda axborot siyosatini va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish zaruratini ko'rsatadi.

Xalqaro maydonda konsektivistik hodisaga misol sifatida 2022-yil yanvarida Qozog'istondagi "Qantar" voqealari keltirish o'rinli. Yoqilg'i narxining oshishi bilan boshlangan mitinglar tez orada ijtimoiy-siyosiy tartibsizliklarga aylanib, Almatida ommaviy zo'ravonliklar yuz berdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 200 dan ortiq shaxs halok bo'lgan, shu jumladan, kamida 6 fuqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qiynoqqa solingan. Hodisa axborot siyosatini va konsektivistik yondashuvni jamoat xavfsizligi va ijtimoiy oqibatlarni hisobga olish zaruriyati bilan bog'laydi<sup>41</sup>. Qozog'istondagi "Qantar" voqealarida hukumat internetni cheklab, mustaqil mediani nazorat qildi. Bu choralarning qisqa muddatli barqarorlikka olib kelishi bilan birga, ishonchsizlik, axborot bo'shligi, feyk xabarlar va mustaqil jurnalistlarga qarshi zo'ravonliklar yuzaga keldi. Demak, axborot tarqatish natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy, siyosiy va huquqiy oqibatlarni hisobga olib qaror qabul qilish zarur. Konsektivistik yondashuv jurnalist va media tashkilotlari uchun axborot tarqatishda ijtimoiy, siyosiy va axloqiy oqibatlarni yaxlit baholashni talab qiladi. Unga ko'ra:

1. Axborot tarqatishda ijtimoiy oqibatlarni oldindan baholash zarur.
2. Media qarorlari uzoq muddatli barqarorlikni hisobga olishi kerak.
3. Dezinformatsiya va radikal kontentning oldini olish ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirishda muhimdir.

Mazkur yondashuvlar zamonaviy jurnalistika va media siyosatining samaradorligini oshiruvchi asosiy tamoyillardan biridir. Tahlillar natijasi shuni tasdiqlaydiki, konsektivistik yondashuv zamonaviy

<sup>38</sup> Gaz portlashi // Gazeta.uz. 22-oktyabr 2024. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/22/gaz-portlashi/?utm=> (23.11.2024).

<sup>39</sup> Toshkentdagi bog'chalarning birida tarbiyachi bolaga shippak uloqtirdi // Yuz.uz. [https://yuz.uz/news/toshkentdagi-bogchalarning-birida-tarbiyachi-bolaga-shippak-uloqtirdi?utm\\_source](https://yuz.uz/news/toshkentdagi-bogchalarning-birida-tarbiyachi-bolaga-shippak-uloqtirdi?utm_source)

<sup>40</sup> Bentham J. An Introduction to the Principles of Morals and Legislation. London: T. Payne, 1789. – P.326.

<sup>41</sup> <https://www.independent.co.uk/news/uk/crime/riots-uk-muslim-asians-rotherham-manvers-hotel-b2591159.html>

jurnalistika va media siyosatining samaradorligini oshiruvchi, axborot tarqatish jarayonini ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtiruvchi asosiy yo'nalish hisoblanadi, shuningdek, onlayn media faoliyatida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Umuman, raqamli media muhitida jurnalistlik faoliyatini samarali va mas'uliyatli tarzda tashkil etish deontologik va konsektivistik yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvini taqozo etadi. Mazkur integratsiya axloqiy dilemmalarni hal etish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash hamda zamonaviy jurnalistikaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jurnalistika nafaqat burch va majburiyatlarni (deontologiya), balki axborotning ehtimoliy ta'sirini (konsektivizm) inobatga olish orqali barqaror axloqiy muhit yaratadi. Har ikki yondashuv uyg'un qo'llanganda, jurnalistik axborot ham haqiqatga sodiqligi, ham ijtimoiy xavfsizlik, shaxsiy qadr-qimmat va jamoat manfaatlarini ta'minlash qobiliyati bilan ajralib turadi. Shu bois, raqamli media sharoitida jurnalist deontologik tamoyillarni poydevor sifatida qabul qilib, konsektivistik baholash bilan boyitilgan mas'uliyatli axborot siyosatini yuritishdir.

Uchinchi bob **“Raqamli transformatsiya sharoitida axloqiy dilemmalar”** deb nomlangan. Mazkur bobning *“Onlayn media makonda jamoatchilik fikriga ta'sir etuvchi omillar”* deb nomlanuvchi 3.1. faslida raqamli transformatsiya sharoitida onlayn media makonning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy-nazariy hamda amaliy misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga ta'siri, jamoatchilik nazorati va fuqarolik faolligini kuchaytirishdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda, soxta axborot, manipulyatsiya va nafrat tili kabi salbiy holatlar ham yoritilgan. Shuningdek, media faoliyatida deontologik va konsektivistik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda jamoat ongiga ta'sir ko'rsatishning yangi maydoni hisoblanadi. Ular orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligi oshib, davlat qarorlariga ta'sir etuvchi tizimli islohotlar yuzaga kelishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarni hurmat qilish, diskriminatsion chiqishlarga yo'l qo'ymaslik va manbalarni aniq ko'rsatish kabi talablar ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyatli axborot tarqatishni ta'minlaydi. Masalan, O'zbekistonda 2022-yilda “Qo'qondagi maktab ta'mirlash ishlari” bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan tanqidiy postlar natijasida rasmiy idoralar hisobot berishga majbur bo'ldi. Xalqaro misol sifatida 2020-yilda AQShda Jorj Floydning politsiya qo'lida halok bo'lishi bo'yicha Twitter va Instagram orqali tarqalgan videolar global “#BlackLivesMatter” protestlariga sabab bo'ldi, shuningdek, siyosiy qarorlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ushbu holatlar ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikri shakllanishi va davlat idoralari faoliyatining shaffofligiga ta'sirini ko'rsatadi<sup>42</sup>.

2020-yilda Toshkentda komendantlik soati joriy qilinadi degan feyk xabar kabi noto'g'ri ma'lumotlar jamoatchilikni chalg'itgan. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarda axborot xavfsizligi va fuqarolarning huquqiy muhofazasi uchun huquqiy va axloqiy mexanizmlarni kuchaytirish zarurati mavjud. 2024-yilda Toshkentdagi havo ifloslanishi masalasi ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilinib, jamoatchilik bosimi Ekologiya vazirligini havo sifatini yaxshilash chora-tadbirlari rejasini e'lon qilishga undadi<sup>43</sup>.

2024-yil oxirida Qozog'istondagi qishloq maktablarida bolalarga nisbatan zo'ravonlik videolari (TikTok va YouTube) tarqaldi<sup>44</sup>. Jamoatchilik va matbuotning qat'iy munosabati natijasida Ta'lim vazirligi surishtiruv boshladi va ayrim maktab rahbarlari ishdan olindi. Ushbu misol ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat jamoatchilik fikrini shakllantirish, balki rasmiy siyosat va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini hamda mediaetik tamoyillarga rioya qilish muhimligini ko'rsatadi. Bu videolar jamoatchilikda keskin munosabat uyg'otdi, matbuot muammoga alohida e'tibor qaratdi, natijada Qozog'iston ta'lim vazirligi surishtiruv boshladi va ayrim maktab rahbarlari ishdan olindi.

Ta'kidlash joizki, media etika madaniyatni targ'ib qilish ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ijobiy ta'sirini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Binobarin, ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlar va milliy qonunchilik o'rtasida muvozanatni saqlash, so'z erkinligi bilan shaxsiy huquqlar chegaralarini belgilash muhimdir. Internet orqali har bir inson “nashriyotchi”ga aylanadi, bu esa nafrat

<sup>42</sup> George Floyd protests // BBC News. 2020. <https://www.bbc.com/news/world-us-canada-52861726>.

<sup>43</sup> Toshkentda havo sifati keskin yomonlashdi: PM2.5 zarralar darajasi me'yordan bir necha baravar yuqori // Daryo.uz. 2024.12.01. <https://daryo.uz>

<sup>44</sup> <https://en.tengrinews.kz/crime/video-of-bullying-at-astana-school-police-opened-a-criminal-264075/>.

g'oyalari bilan sug'orilgan ma'lumotning tez tarqalishiga olib keladi<sup>45</sup>. Ayni ma'noda, huquqshunos olim professor V. Monaxovning ta'kidlashicha, internetning vujudga kelishi tufayli ommaviy axborot bilan ishlovchi an'anaviy va professional subyektlar qatoriga ushbu mashg'ulotning minglab va hatto millionlab muxlislari kelib qo'shildilar. Ularning ko'pchiligi jurnalist kasbining an'ana va me'yorlari haqida tasavvurga ega emas<sup>46</sup>. Internet orqali uzatilayotgan axborotlarning aksariyati tezkor amalga oshirilayotgani sababli ba'zi xatoliklar ham ro'y berishi kuzatiladi. Masalan, CNN veb-saytida (www.cnn.com) O'zbekiston to'g'risida axborot berilganda, Qozog'iston bayrog'ining rasmi bilan joylashtirilgani kuzatilgan edi, ammo ushbu xatolik keyinchalik tuzatib qo'yildi.

Dissertatsiya doirasida O'zbekistonda onlayn media faoliyatida axloqiy va kasbiy muammolarni o'rganish maqsadida talaba, jurnalist va fuqarolar orasida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqotda voqeani bir tomonlama yoritish, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, mustaqil fikr erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, manfaatlar to'qnashuvi va jurnalistik vazifa bilan axloqiy me'yorlar o'rtasidagi muvozanat kabi masalalar o'rganildi. So'rovnomada jami 298 nafar fuqarolar, 424 nafar jurnalist va 805 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilarning aksariyati axborotning xolisligi, shaxsiy daxlsizlik va bola huquqlarini himoya qilish zarurligini ta'kidlagan. Masalan, bolalar yuzini ochiq aks ettirishni 70–75 % respondentlar noto'g'ri deb baholagan. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, 65 % jurnalistlar avariya va halokat qurbonlari suratlarini chop etmaslikni afzal ko'radi. Anonim manbalardan foydalanish masalasida fikrlar teng bo'lib, 50 % jurnalistlar e'lon qilishga rozilik bildirgan, qolgan 50 % ishtirokchilar esa manbaning ishonchliligi va huquqiy xavfni asos qilib keltirgan. Talabalar orasida kasbiy mustaqillik va etik me'yorlar ustuvor bo'lib, 74,5 % mustaqil nashrda amaliyot o'tashni afzal ko'rgan, faqat 14,9 % talaba ijobiy fikr bilan amaliyotni qabul qilgan. Shuningdek, talabalar salbiy fikrlarni maqolaga kiritish yoki shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish bo'yicha ham aniq yondashuvni namoyon qilgan.

Bobning *“Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasi, ishonchlilik va faktlarni tekshirish”* deb nomlangan 3.2.faslida shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, axborotning ishonchliligi va faktlarni tekshirishning jurnalistik mas'uliyati hamda milliy va xalqaro huquqiy-axloqiy me'yorlarga rioya qilish zarurati, onlayn media va ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish hamda feyk axborotlarning jamoatchilik ishonchiga salbiy ta'siri muhokama qilinadi.

Zamonaviy axborot jamiyatida jurnalistikada shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, axborot ishonchliligi, faktlarni tekshirish kasb etikasi huquqiy me'yorlarning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Jamoat ishonchi bevosita axborot manbalarining ishonchliligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish darajasiga bog'liq. Shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish shaxsiy daxlsizlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, BMT va Yevropa Kengashi hujjatlarida fundamental huquq sifatida e'tirof etilgan, O'zbekistonda esa asosiy huquqiy baza 2019-yil qabul qilingan *“Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”*gi Qonun hisoblanadi.

Shaxsiy ma'lumotlarni faqat jinoiy faoliyat, davlat mansabdor shaxslarining jamoatchilikka taalluqli ishlari yoki korrupsiya kabi istisnolar bilan cheklangan bo'lib, bu hollarda manbaning aniqligi va ishonchliligi zarur. Axborotning ishonchliligi va faktlarni tekshirish (fact-checking) jurnalistik faoliyatning markaziy standartidir, O'zbekistonda esa faktcheking madaniyati rivojlanish bosqichida bo'lib, nodavlat tashkilotlar va media platformalar bu borada ilk qadamlarni tashlamoqda. Shaxsiy ma'lumotlar inson shaxsini ifoda etuvchi ma'lumot bo'lib, ularni suiiste'mol qilish inson huquqlarini buzadi, shuning uchun maxfiylikni ta'minlash inson qadr-qimmatini himoya qilishni anglatadi va shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda mas'uliyat hamda axloqiy yondashuv talab etiladi. Axborot oshkoraligini ta'minlash bilan bir qatorda shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish jurnalistika faoliyatining ustuvor tamoyiliga aylanmoqda. Bu holat 2023-yilda Toshkentdagi xususiy klinikada bemorning tibbiy ma'lumotlari uning yozma rozilgisiz ommalashtirilgani bilan bog'liq holatda ham yaqqol namoyon bo'ldi. Mazkur voqea *“Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”*gi Qonun me'yorlariga zid hisoblanadi. Shuningdek, sud jarayonlari haqida axborotni yoritishda aybsizlik prezumpsiyasi tamoyiliga rioya etilmasligi ham jiddiy

<sup>45</sup> Shamshieva I. Internet va bag'rikenglik muammolari. // Infokom. Uz. 2015. № 10. B.84.

<sup>46</sup> Монахов В. Н. СМИ и Интернет: проблемы правового регулирования – М.: Экопринт, 2003. – С. 8–9.

muammo sifatida namoyon bo'lmog'da. Sud hukmi qonuniy kuchga kirmasdan turib gumonlanuvchining ismi va tasvirlarini e'lon qilish jinoyat-protsessual qonunchilik va jurnalistik etikaga ziddir<sup>47</sup>.

Bugungi kunda axborot muhitining raqamlashtirilishi va globallasuvi sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi nafaqat yuridik, balki muhim axloqiy muammo sifatida ham dolzarblik kasb etmoqda. Jurnalistik amaliyotda Jeneva deklaratsiyasi, Xalqaro jurnalistlar federatsiyasining etika kodeksi, YuNESKO tavsiyalari hamda Yevropa Ittifoqida qabul qilingan GDPR qoidalar<sup>48</sup> shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilishning asosiy xalqaro mezonlari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur hujjatlar axborot tarqatish jarayonida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash va jurnalistik mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari onlayn media faoliyatida shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi nafaqat axloqiy, balki huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Jumladan, 2023-yil 13-oktabr kuni Kun.uz nashrida e'lon qilingan xabarga ko'ra, OneID, STM va bank tizimlariga oid 200 mingdan ortiq foydalanuvchining login va parollari internetga tarqalgan<sup>49</sup>. Ushbu holat O'zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi jiddiy darajada buzilganini namoyon etib, axborot xavfsizligi hamda jurnalistlarning axborotni tarqatishdagi mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga chiqardi. Shuningdek, 2024-yil 11-yanvarda Mirzo Ulug'bek tuman sudi tomonidan Telegram ijtimoiy tarmog'ida ayollarning shaxsiy suratlarini tarqatish va ularni o'chirish evaziga pul talab qilish bilan bog'liq holat yuzasidan aybdor shaxsga nisbatan qonuniy javobgarlik belgilandi. Mazkur voqea shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish, inson sha'ni va qadr-qimmatiga jiddiy tahdid solishini yaqqol ko'rsatadi. Bundan tashqari, 2025-yil 9-aprel kuni xabar.uz saytida e'lon qilingan tahlilga ko'ra<sup>50</sup>, Telegramdagi "HELLO TASHKENT, SALAM TASHKENT" kanali orqali shaxsning roziligisiz shaxsiy fotosuratlarini tarqatilib, uni ijtimoiy tarmoq sahifalaridan o'chirish evaziga moddiy mablag' talab qilingan.

Keltirilgan misollar raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan axloqiy dilemmalarning jamoatchilik ongiga ta'sirini hamda ommaviy axborot vositalari faoliyatida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash, fuqarolik huquqlarini himoya qilish va kiberxavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini asoslab beradi. Chunki raqamli media muhitida axborotning nazoratsiz tarqalishi, mualliflik huquqlarining buzilishi va feyk axborotlar kengayishi jamoat ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, xalqaro jurnalistik etika standartlarida shaxsiy hayot daxlsizligi, ishonchli manbalarga tayanish va axborotni tekshirish tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega.

Tadqiqotning *"Algoritmlar va sun'iy intellektning axloqiy dilemmalarni yechishdagi o'rni"* deb nomlangan 3.3.faslidagi jurnalistika sohasida sun'iy intellekt (SI) va algoritmlardan foydalanishda murakkab axloqiy muammolarning yuzaga kelishi, axborot tarqatishda avtomatlashtirilgan xabar yozish tizimlari, fakt-tekshiruvchi algoritmlar va kontent filtrlash mexanizmlari tahlil qilingan.

Jurnalistika sohasida SI yordamida tayyorlangan materiallar bo'yicha axloqiy qarorlarni qabul qilishda insonning vijdoni, kasbiy standartlari va insonparvarlik tamoyillari asosiy mezon bo'lishi lozim. Axborot faqat ma'lumot emas, balki ijtimoiy ta'sirga ega axloqiy qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Axloqiy dilemmalarni hal etish jarayonida SI yordamchi vosita sifatida ishlatiladi, ammo so'nggi qaror inson tomonidan qabul qilinishi muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jurnalistning vazifasi axborot orqali jamiyatni xabardor qilish bilan birga, uni axloqiy va ma'naviy barkamollik sari yetaklashdan iboratdir. Masalan, 2024-yilda AQSh saylov kampaniyasi davrida bir nomzodga qarshi deepfeyk video tarqatilishi va Buyuk Britaniyadagi saylovlarda SI ta'sirining barqarorlikka ta'siri masalalari xalqaro miqyosda keng jamoatchilik tomonidan ilmiy tahlil qilindi<sup>51</sup>. Natijada sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida jurnalistning shaxsiy mas'uliyati, vijdoni va axloqiy nazorat funksiyasi saqlanib qolishi axborotning ijtimoiy ahamiyati va axloqiy mazmuni faqat inson tomonidan to'liq anglab yetilishi isbotlangan. Demak, soxta videolarni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish, ularning sun'iy intellekt yordamida

<sup>47</sup> Lex.uz. 2019. № 561-II. <https://lex.uz/docs/4917925>

<sup>48</sup> Geneva Declaration on the Rights and Duties of Journalists. Geneva: International Organization of Journalists, 1971. –P. 2. International Federation of Journalists. Declaration of Principles on the Conduct of Journalists. – Bordeaux: IFJ World Congress, 1954. – 3 p. UNESCO. International Principles of Professional Ethics in Journalism. – Paris: UNESCO, 1983. –P. 12. Regulation (YeU) 2016/679 of the European Union. <https://kun.uz/news/2023/10/20/misli-korilmagan-kiberhujum-hakerlar-200-mingdan-ortiq-ozbekistonlik-foydalanuvchilarning-loginsizdirdi>.

<sup>49</sup> Xabar.uz sayti. <https://xabar.uz/incident/telegramda-shaxsiy-malumat-bilan-shantaj>.

<sup>51</sup> Stockwell S., Hughes, M., Swatton, P., Bishop, K. AI-Enabled Influence Operations: The Threat to the UK General Election // Centre for Emerging Technology and Security. 2024. <https://cetas.turing.ac.uk/publications/ai-yenabled-influence-operations-threat-uk-general-election>

yaratilgani va dastlab keng tarqalgan ta'siri jurnalistikaning axloqiy standartlar bilan uyg'unlashtirilishini zarur qilmoqda. Mazkur holat axborotni tarqatish erkinligi va inson sha'nini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlash ehtiyojini ko'rsatadi.

Zamonaviy raqamli platformalarning muhim xususiyatlaridan biri, tabiiyki, kontent tavsiya tizimlari bo'lib, ular foydalanuvchilarning qiziqishlari va o'tmishdagi faoliyati asosida ma'lumotlarni tartibga soladi va tavsiya qiladi. Masalan, Facebook, TikTok va YouTube kabi platformalarning algoritmlari foydalanuvchiga moslashtirilgan kontentni taqdim etish orqali uning interaktivligini oshirishga intiladi.. Masalan, 2023-yilda TikTok platformasi AQShdagi yoshlar orasida ayrim janjalli siyosiy mavzular bo'yicha faqat bir yondashuvni keng tarqatgani uchun tanqidga uchradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, platforma algoritmi ko'proq ko'rilgan va o'zaro faol aloqaga ega bo'lgan kontentni ustun qilayotgani sababli, turli fikrlarning teng tarqalishi cheklangan. Bu holat axborotga teng imkoniyat yaratish va auditoriyaning individual qiziqishlariga moslashish o'rtasidagi asosiy axloqiy ziddiyatni ochib beradi.

Masalan, 2021-yilda Facebook foydalanuvchilarning xususiy ma'lumotlarini siyosiy va tijorat maqsadlarida tahlil qilgani tanqid qilingan<sup>52</sup>. 2022-yilda Reuters avtomatik xabarni inson tomonidan tekshirmasdan e'lon qilgani noto'g'ri talqin va xatoliklarni yuzaga keltirgan. Shuningdek, avtomatlashtirilgan yangiliklar jarayonida inson omilining, ayniqsa, muharrir tahriri nazoratining kamayishi xabarlar mazmunida jurnalistik tahlil va ijtimoiy mas'uliyatning yo'qolishiga olib keladi. Mazkur jarayon axborotni tez yetkazish va foydalanuvchiga moslashuvchanlik bilan shaxsiy hayot daxlsizligi, axloqiy nazorat va to'g'ri talqin qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlash zaruratini ko'rsatadi. Jurnalistik axloqiy nuqtai nazardan yangilikning ishonchliligi, xolisligi va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqligi ustuvor ahamiyatga ega. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Germaniyada 2022-yildan boshlab SI yordamida yaratilgan kontent alohida belgi bilan nishonlanishi qonun bilan belgilangan<sup>53</sup>. Yaponiyada esa jurnalistikada SI inson qadrini buzmasligi va axloqiy standartlarga zid bo'lmasligi sharti bilan ishlatiladi<sup>54</sup>. Sun'iy intellekt (SI) jurnalistikada yangi imkoniyatlarni yaratib, axloqiy xavf-xatarlarni ham kuchaytirmoqda. Shu bois, jurnalistlar axloqiy bilim va kasbiy mahoratni muntazam oshirib, SIDan foydalanishda shaxsiy va kasbiy mas'uliyatni to'liq his qilishi zarur.

Kiberkorruptsiyaga qarshi kurashda moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qiluvchi algoritmlar ma'lum natijalar berar ekan, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi axloqiy va huquqiy bahslarga sabab bo'ladi<sup>55</sup>. Sog'liqni saqlash tizimida mammografiya va KT natijalarini tahlil qiluvchi algoritmlar tashxisni tezlashtiradi, ammo xato tashxis qo'yilganda mas'uliyat kimga yuklanishi axloqiy dilemma sifatida qoladi<sup>56</sup>. Jamoat xizmatlari va transport tizimidagi UzFace kabi SI asosidagi kuzatuv platformalari yo'l harakati qoidabuzuvchilarni aniqlash imkonini beradi, lekin doimiy videokuzatuv shaxsiy hayot daxlsizligiga tahdid soladi<sup>57</sup>.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalari jurnalistikada fakt tekshirish vositalarining global holatini tadqiq qilishda muhim masala hisoblanadi. Nemis olimlari R. Cazzamatta va A. Sarisakaloğlu ("Mapping Global Emerging Scholarly Research and Practices of AI-supported Fact-Checking Tools in Journalism") tadqiqotida<sup>58</sup> 348 ta algoritimga asoslangan maqolalari tahlil qilingan, shundan faqat 21 tasi fakt tekshirishga bag'ishlangan. Shuningdek, 3154 ta fakt tekshirish maqolalari va 46 ta davlatdagi 105 axborot agentligi o'rganilgan. Natijalar SI vositalaridan foydalanish darajasi: Chilida 28%, Portugaliyada 3%, Germaniyada geolokatsiya vositalari 18.5%, Portugaliyada 6.5% ekanligini ko'rsatadi. Ko'p ishlatiladigan vositalar: InVid, Google Lens, Google Maps, CheckPhish, PimEes va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda so'nggi yillarda (2022–2025) onlayn media faoliyatida sun'iy intellekt (SI) va algoritmik texnologiyalardan foydalanish izchil kengayib bormoqda. Jumladan, tahririyatlar tomonidan xabarlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahrirlash, axborot tarqatishda Telegram-botlar va avtomatik postlash tizimlaridan foydalanish, shuningdek, auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda

<sup>52</sup> Isaak, J., Hanna, M. J. User Data Privacy: Facebook, Cambridge Analytica, and Privacy Protection // Computer. 2018. № 8. – P. 56-59.

<sup>53</sup> <https://www.llp-law.de/en/labeling-obligation-of-ai-generated-content/>

<sup>54</sup> <https://link.springer.com/article/10.1007/s11616-024-00858-3> Yaponiya Savdo va sanoat vazirligi (METI)

<sup>55</sup> [https://uza.uz/posts/kiberkorruptsiyaga-suniy-intellekt-orqali-tosiq-qoyish-mumkinmi\\_696824](https://uza.uz/posts/kiberkorruptsiyaga-suniy-intellekt-orqali-tosiq-qoyish-mumkinmi_696824)

<sup>56</sup> <https://yuristjournal.uz/index.php/lawer-herald/article/view/507>

<sup>57</sup> Uzbekistan to integrate AI into healthcare, courts and public services // Kun.uz. 2025. <https://kun.uz/en/news/2025/07/22/uzbekistan>

<sup>58</sup> Cazzamatta R., Sarisakaloğlu, A. Mapping Global Yemerging Scholarly Research and Practices of AI-supported Fact-Checking Tools in Journalism // Journalism Practice. 2025. – P. 1–23.

kontentni qayta formatlash amaliyoti joriy etilmoqda. Biroq mazkur jarayonda axloqiy va huquqiy standartlarning yetarli darajada aniqlanmagani ayrim hollarda tasdiqlanmagan axborot tarqalishi, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligining buzilishi hamda auditoriyani manipulyatsiya qilish xavfini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan media kontentni maxsus belgilash, ya'ni markirovka mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xususan, yangilik portali sun'iy intellekt yordamida maqola tayyorlagan bo'lsa, material boshida "Ushbu kontent sun'iy intellekt yordamida yaratilgan" degan maxsus belgi ko'rsatilishi lozim. Video va audio materiallarda esa chiqishning dastlabki 3–5 soniyasida vizual yoki ovozli ogohlantiruvchi belgi berilishi talab qilinadi va muharrir tomonidan SI yordamida yaratilgan materiallar tahrir qilinib, ular mazmun jihatidan to'liq nazorat qilinishi zarur. Ushbu mexanizmlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

#### 1. Qonunchilik va normativ-huquqiy mexanizmlar

